

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

RAQAMLAR:

Faoliyat ko`satayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **579 taga o'sdi.**

Faoliyat ko`satmayotgan korxonalarning ulushi **10,3 foizga ko'paygan.**

Tugatilgan korxo-nalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **589 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-aprel oyida viloyatda 819 ta yaqin yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan yangi tashkil etildi, bu esa korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan

271 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,0 % ga ko'paygan hamda ular ning soni 230 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan yangi tashkil etildi, bu esa korxona va tashkilotlar soni 579 ta (6,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10.1 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko`satayotgan korxonalar va tashkilotlar-ning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,5 %), Karmanada (17,4%), Qiziltepa (11,2 %) va Xatirchi (10,3 %) tumanlarida kuzatilmooda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Navoiy viloyati	10348	100	10048	100
Navoiy shahar	3114	30,1	2966	29,5
Zarafshon shahar	635	6,1	608	6,1
tumanlar:				
Konimex	309	3,0	288	2,9
Qiziltepa	1152	11,1	1123	11,2
Navbahor	895	8,6	880	8,8
Karmana	1767	17,1	1747	17,3
Nurota	858	8,3	845	8,4
Tomdi	187	1,8	178	1,8
Uchquduq	381	3,7	379	3,8
Xatirchi	1050	10,2	1034	10,2

Korxonalar va tashkilotlarning umumiyl sonida faoliyat ko'rsatavotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiyl sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,1 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiyl soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 10,3 % ga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,0 % savdoda, 15,8 % sanoatda, 8,8 % qurulishda, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-aprel holatiga 819 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 49,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (163 ta), Karmana (114 ta), Nurota (103 ta) va Xatirchi tumanlarida (101 ta) tashkil etilgan. Eng kam Tomdi (19 ta), Konimex (25 ta) hamda Uchquduq (43 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (112 ta), sanoatda (149 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (143 ta), qurilishda (83 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (77) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (12 ta), axborot va aloqada (20 ta) hamda tashish va saqlashda (25 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
Jami:	548	819
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	131	143
Sanoat	120	149
Qurilish	42	83
Savdo	102	112
Tashish va saqlash	31	25
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	63	77
Axborot va aloqa	5	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	12
Boshqa turlari	46	198

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (0,0 f.p) va savdoda (-4,9 f.p), kamayganligi, buning natijasida sanoatda(-3,7 f.p.), qurulishda (+2,5 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+6,4 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-2,1 f.p) hamda boshqa faoliyat turlarida (+15,8 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+-)
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	17,5	23,9	-6,4
Sanoat	18,2	21,9	-3,7
Savdo	13,7	18,6	-4,9
Tashish va saqlash	3,1	5,7	-2,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	9,4	11,5	-2,1
 xizmatlar			
Qurilish	10,1	7,7	2,5
Axborot va aloqa	2,4	0,9	1,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1,5	1,5	0,0
ko'rsatish			
Boshqa turlari	24,1	8,3	15,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 may holatiga 8113 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3285 ta, oilaviy korxonalar – 593 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 3992 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 20 tani va boshqalar 223 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 66 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga yoki 15,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 48 tasi qo'shma korxonalar, 18 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 22 ta (33,3 %), Karmana tumani 22 ta (33,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qiziltepa tumani 5 ta (7,6 %), Nurota tumani 5 ta (7,6 %), Navbahor tumani 4 ta (6,1 %) va Zarafshon shahar 3 ta (4,5 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 45 ta (68,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (10,6 %), savdoda 5 ta (7,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 4 ta (6,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (4,5 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,5 %) va qurilishda 1 ta (1,5 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilishda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda turlariga to'gri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 6 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Eron Islom Respublikasi-1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta va Koreya Respublikasi– 1 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi –1 ta, Bolgariya Respublikasi-1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprel holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 4 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8031 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 12,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2493 tasi (31,0 %) Navoiy shahriga, 1507 tasi (18,8 %) Karmana, 901 tasi (11,2 %) Qiziltepa hamda 722 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8031 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 1995 tasi (24,8 %) – savdoda, 1565 tasi (19,5 %) - sanoatda, 887 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1065 tasi (13,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 754 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 387 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 127 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 148 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1103 tasi (13,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 693 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahrida (143 ta), Nurota tumanida (103 ta), Zarafshon shahrida (86 ta) va Karmana tumanida (88 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (32 ta), Konimex (24 ta) hamda Tomdi (16 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (149 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (143 ta) savdoda (112 ta) va qurilishda (83 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (25 ta), axborot va aloqada (20 ta) hamda sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (12 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 609 tani tashkil etib, ulardan 593 tasi yoki 97,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **26,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 20,9 % yoki 124 tasi sanoat, 22,4 % yoki 133 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,4 % yoki 115 tasi savdo, 24,1 % yoki 143 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 7 tasi qurilish, 1,5 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 6 tasi tashish va saqlash, 1,7 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,8 % yoki 46 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **S.Doniyev**



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan